



ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDA XAVFSIZ TURIZMNI TA'MINLASH KONSEPSIYASINING BAJARILISHI

Alqarov Eldor Mahmudovich

podpolkovnik

Samarqand Viloyat IIB boshlig'i o'rinbosari,

Samarqand Viloyat XTTB boshlig'i

(Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi)

Annotatsiya. *Ushu maqolada Ichki ishlar organlari tizimida xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasining bajarilishi va sayyohlarni ehtimoliy xavflardan xabardor etish hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yordamlashish shartlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Xavfsiz turizm, sayyoh, Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qashqadaryo, turistik infratuzilmalar.*

Аннотация. *В данной статье описаны условия реализации концепции обеспечения безопасного туризма в системе органов внутренних дел и информирования туристов о возможных рисках и содействия защите их прав и законных интересов.*

Ключевые слова: *Безопасный туризм, турист, Бухара, Самарканд, Хорезм и Кашкадарья, туристские инфраструктуры.*

Annotation. *This article describes the conditions for implementing the concept of ensuring safe tourism in the system of internal affairs bodies and informing tourists about possible risks and promoting the protection of their rights and legitimate interests.*

Key words: *Safe tourism, tourist, Bukhara, Samarkand, Khorezm and Kashkadarya, tourist infrastructures.*

Mamlakatimizda so'nggi yillarda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ona diyorumizga tashrif buyurgan sayyohlarning ko'zlarida hayrat va hayajon uyg'otib, ajoyib sayohat zavqini tuyish, maroqli hordiq chiqarish imkoniyatini berayopdi. Samarqand, Buxoro va Xiva viloyatlari respublikamizdagi turistlar qiziqishi va e'tiborida bo'lgan ana shunday hududlardan biridir.

"Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasi tasdiqlangan edi. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida turizm xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyati takomillashtirildi. Endilikda Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari IIBda vaziyat markazlari faoliyat ko'rsatadi. Ular xavfsiz turizm holatini monitoring qilish, sayyohlarni real vaqt rejimida ehtimoliy xavflardan xabardor etish hamda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yordamlashish bilan shug'ullanadi.



Hozirgi kunda Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlari ichki ishlar boshqarmalarida xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha boshqarmalar tashkil etildi va mazkur boshqarmalar boshliqlari tayinlandi. Ular, o'z navbatida, viloyat IIB boshliqlarining o'rinbosari hisoblanadi. Yangi tashkil etilgan boshqarmalarga xorijiy tillarni mukammal biladigan xodimlar ishga qabul qilingan.

Mamlakatda bo'lib turgan davrda sayyohlar xavfsizligini, transportdan foydalanish va ko'chishlarini ta'minlash bo'yicha turizm sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi va yetib kelgan sayyohlar hisobini yurituvchi davlat va nodavlat tashkilotlarning yagona axborot bazasini shakllantirish rejalashtirilmoqda. Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabzdagi transport infratuzilmalari va xizmat ko'rsatish sohasi obektlarida plakatlar, belgilar va ko'rsatkichlar o'rnatilmoqda.

Mobil ilova sayyohlarni mamlakatimizda bo'lish qoidalari, viza va ro'yxatga olish jarayonlari, diqqatga sazovor manzillar va yo'nalishlar, shuningdek, yaqin ichki ishlar organi tayanch punktlari va tibbiyot muassasalari to'g'risida xabardor qilib turadi. Mazkur mobil ilovada sayyoh huquqni muhofaza qilish organlariga mushkul vaziyatga tushib qolganlik to'g'risida xabar yuborishi yoki o'z mamlakatining konsullik idorasiga murojaat yozishi mumkin.

Yashash joyi xavfsizligini ta'minlash, mehmonxonaga joylashish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohasida har bir mehmonxonada yetib kelgan sayyohlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirishga imkon beruvchi «E-mehmon» elektron axborot tizimi joriy etilmoqda. Mehmonxonalarga kirish joyi kunu tun videokuzatuv ostida bo'ladi.

Bundan tashqari, «Xavfsiz turizm» yagona apparat-dasturiy majmuasi joriy etiladi. Bu videokuzatuv, ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomat ravishda qayta ishlash, huquqbuzarliklar va hodisalar to'g'risidagi xabarlarini qabul qilish va ro'yxatga olish tizimi hisoblanadi.

Turistik diqqatga sazovor maskanlarga tashrif buyurgan sayyohlar va rasmiy xorijiy delegatsiyalar xavfsizligini ta'minlash va kechki ko'ngilochar dasturlarni tashkil etish sohasida sayyohlarni individual himoya qilish bo'yicha maxsus texnik vositalarga bo'lgan talablarni ishlab chiqish va o'rnatish ham belgilangan.

Samarqand viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari xorijiy va mahalliy fuqarolardan iborat mehmonlarning xavfsizligini ta'minlash, ular bilan bog'liq noxush holatlarning oldini olish maqsadida tunu kun xizmat olib borishmoqda.

Bugungi kunda Samarqand viloyatda turistik infratuzilma obyektlarining soni 1755 tani tashkil qiladi. Shundan arxeologiya, arxitektura, monumental san'at yodgorliklari, diqqatga sazovor joylarni o'z ichiga olgan madaniy meros obyektlari 1626 tani, tarixiy obidalar 94 tani, ziyorat turizmi obyektlari 14 tani, muzeylar 8 tani, eko-agroturizm obyektlari 8 tani, qo'riqlanma hududlar 5 tani tashkil etadi. Ushbu tahlilning o'ziyoq boshqarma xodimlari xizmat ko'lamining kengligini dalillaydi, albatta. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-noyabrda 939-sonli qarori bilan ichki ishlar organlari tizimida xavfsiz turizmni ta'minlash



bo'linmalari tashkil etilib, ularning asosiy faoliyat yo'nalishi etib tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlar xavfsizligini ta'minlash belgilab qo'yilgan.

Ayni paytda IIV Xavfsiz turizmni taminlash boshqarmasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – turli yurtlardan va qo'shni viloyatlardan kelgan mehmonlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. Xodimlar chet el fuqarolari bilan muntazam ravishda suhbatlar o'tkazib, ularga yurtimizda istiqomat qilish qoidalari, ro'yxatdan o'tish tartibi, belgilangan qoidalarga rioya qilish to'g'risida ma'lumot berib kelishmoqda. Bundan tashqari, xodimlar tomonidan nafaqat sayyohlarning xavfsizligini ta'minlashda, balki ularga zarur bo'lgan har qanday masalada yordam ko'rsatilmog'da. Masalan, sayyohning sog'ligi yomonlashsa unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda tez tibbiy yordam chaqirish, zarur bo'lsa shifoxonaga olib borish, unutilib qoldirilgan shaxsiy narsa-buyumlarini topishda ko'maklashish yoki adashib qolgan sayyohlarga yo'l ko'rsatib qo'yish kabilar. Shu o'rinda yana bir muhim raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, joriy yilning 1 oyida viloyatga jami 513000 nafar sayyohlar tashrif buyurib, mahalliy 384000 nafar , xorijiy 129000 nafar xorijiy tashkil etgan. E'tiborli jihati shundaki, joriy yilning o'tgan davrida sayyohlar bilan bog'liq bironta baxtsiz hodisa ro'y bermadi. Xorijiy davlatlarning delegatsiya vakillarini kutib olish, xavfsizligini ta'minlash va kuzatish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgani bois tashriflar davomida ko'ngilsiz holatlar ham kuzatilmadi. Tashrif obyektlarida xizmat olib borayotgan boshqarma xodimlariga xorijiy va mahalliy sayyohlar tomonidan tibbiy yordam, manzilda adashish va xizmat ko'rsatishga doir kelib tushgan boshqa masalalar yuzasidan murojaatlar bo'yicha tezkorlikda zarur amaliy yordam ko'rsatildi. Hisobot davrida jami **12 ta** xorijiy delegatsiyalar tashrif buyurgan bo'lib, unda **199 kishi** ishtirok etgan.

Shuningdek, Samarqand viloyati IIB XTTB tomonidan **10 ta** xorijiy davlatlardan va boshqa nodavlat xalqaro tashkilotlardan **2 ta** delegatsiya vakillarini kutib olish, xavfsizligini ta'minlash va kuzatish ishlari tashkil etilib, tashrif davomida ko'ngilsiz holatlarga yo'l qo'yilmagan. Shuning uchun yurtimizga kelayotgan har bir sayyohlarning hayoti va xavfsizligi davlat siyosati darajasida bo'lib, dunyo hamjamiyati tomonidan ayni paytda O'zbekiston Respublikasi turistlar uchun eng xavfsiz hudud sifatida e'tirof etilmoqda.

Shuningdek, **xulosa** o'rnida shuni aytish mumkinki, boshqarma xodimlari tomonidan tizimli ravishda turizm namoyish obyektlari xodimlari, mehmonxona ishchilari, turistik firmalar va boshqa sayyohlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar, tadbirkorlik nuqtalari vakillari bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilib, ularga turistlar xavfsizligini ta'minlashda hamda tegishli qonuniy xizmatlar ko'rsatishda maqbul tartib-qoidalarni tushuntirib kelinmoqda. Suhbatlar davomida tashrif buyuradigan mahalliy va xorijiy fuqarolar bilan xushmuomalada bo'lish, ularning shaxsiy buyumlariga ehtiyotkor bo'lishlari, sayyohlarga har qanday masalada yordam zaruriyati tug'ilganida yoki ularga nisbatan huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda



viloyatlardagi IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi va IIV Xavfsiz turizmni ta'minlash navbatchilik qismining telefon raqamiga murojaat etishlari ta'kidlanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex uz. VM 939-sonli qarori.
2. Kun.Uz 10.01.2020.
3. <https://kun.uz/uz/07091761>.